| | |
|---|---|
| | taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.<br>5. Новейшая история стран Азии и Африки: XX век. Ч. 2. – Москва, ВЛАДОС, 2001.<br>6. Низомиддинов Н.Ғ. Жанубий, жануби-шарқий ва шарқий осиё халқлари қадимги тарихи, диний эътиқоди, маданияти (хрестоматия). 2010.<br>7. Турсунова С.М. Восток и Запад: структурний анализ и пути взаимодействия. –Т., 2010.<br>8. Sulaymanova F. Sharq va G‘arb. –T., 2002.<br>**Axborot manbalari**<br>7. www.globalaffairs.com<br>8. www.lenta.ru<br>9. www.mid.ru<br>10. www.strana.ru<br>11. www.whitehouse.gov/news/releases<br>12. http://asiapacific.narod.ru/countries/china/special_way_china.htm |
| **7.** | O‘quv dasturi “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “26” 08 dagi “1” - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” 08 dagi “1” - sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>N.A.Abdullayev- TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi dotsenti, s.f.n. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>A.X.Xudoyberdiyev - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi<br>Urakov D.J. – O‘zMU “Jahon tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM). |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
2021-yil “28” 08

# SHARQ MAMLAKATLARI TARAQQIYOTI TARIXINING TIZIMLI TAHLILI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220 000 | - | Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70220301 | - | Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) |

**Toshkent – 2021**

| | |
|---|---|
| | ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;<br>• talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, dunyo sharqshunosligiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va tizimlashtira olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br>• dunyo mamlakatlarining taraqqiyot xususiyatlariga oid ilmiy adabiyotlarini tavsiflash, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi* kerak.** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Абдуллаев Н. История социално-политического развития стран Востока. – Т., 2012.<br>2. Каримова Н.Е., Пянова Е., Азимов К.С. Особенности развития стран Далнего Востока. –Т., 2015.<br>3. Иноғомов С.Р. Саудия Арабистони Подшоҳлиги. -Т., 2002.<br>4. Александров И.А. Монархии Персидского залива. Этап модернизации. -М., 2000.<br>5. Ёвкочев Ш. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т., 2008.<br>6. Воскресенского А.Д. Политические системи и политические култури Востока –М., 2007.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2017.- 104 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt |

4. An'anaviy siyosiy madaniyatning o'ziga xos jihatlari
5. Islom Saudiya Arabistoni Podshohligining asosi.
6. Shimoliy Afrika arab davlatlari rivojlanish bosqichlarining tizimli tahlili
7. O'rta Sharq mamlakatlari siyosiy tizimlarining xususiyati
8. Hozirgi Hindiston siyosiy madaniyatining xususiyatlari.
9. Pokiston ichki va tashqi siyosatida "islom omili".
10. O'rta Sharq mamlakatlari siyosiy tizimi va siyosiy madaniyatining xususiyatlari.
11. Eronning inqilob yo'li va mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi
12. Turkiyaning taraqqiyot yo'li
13. Malayziya va Singapur siyosiy tuzilishining o'ziga xos jihatlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
1. Sharq mamlakatlari rivojlanishining asosiy modellari.
2. Sharq mamlakatlari rivojlanishida diniy-madaniy omil.
3. Qadimgi davr Sharqda davlatchilikning shakllanishi xususiyatlari.
4. Sharq mamlakatlarida o'rta asr jamiyati.
5. O'rta asrda Sharq mamlakatlari rivojlanishidagi muammolar.
6. Yangi davrda Sharq mamlakatlari taraqqiyotining xususiyatlari.
7. Sharqning zamonaviy strukturasi shakllanishi.
8. Sharq mamlakatlari XX asrda.
9. Sharq mamlakatlarining umumiy siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tasnifi.
10. Sharq mamlakatlarining bugungi kundagi siyosiy va iqtisodiy rivojlanishidagi muhim jihatlar.
11. Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining o'ziga xos jihatlari.
12. Sharq mamlakatlari "tepadan" isloh qilinishining natijalari.
13. O'rta Sharq mamlakatlari siyosiy tizimi va siyosiy madaniyatining xususiyatlari.
14. Arab mamlakatlarida liderlik uchun kurash.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3.** **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Magistr bilishi kerak:
- Sharq mamlakatlari taraqqiyoti tarixining tizimli tahlili fanining maqsad va vazifalari sharq mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy rivojlanishining xususiyatlari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan



| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| STT104 | 2021-2022 | 2 | 4 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | O'zbek/rus | | 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Sharq mamlakatlari taraqqiyoti tarixining tizimli tahlili | 60 | 60 | 120 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Dasturda Sharq mamlakatlarining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy hayotidagi o'ziga xos taraqqiyot yo'li ko'rsatib berishga va uni tizimlashtirishga harakat qilingan. Unda Sharq mamlakatlarining davlat va jamiyat qurish yo'lidagi tarixi bosqichlari, davlatchilik jarayonlari tarixi, Sharq mamlakatlari-ning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy hayotidagi o'ziga xos taraqqiyot yo'li; xalqaro munosabatlari; mintaqaviy va xalqaro muammolarini hal etish borasidagi faoliyati, diniy omilning Sharq mamlakatlari hayotida hamda ichki va tashqi siyosatida tutgan o'rnini talqin etish masalalari qamrab olingan.

"Sharq mamlakatlari taraqqiyoti tarixining tizimli tahlili" deb nomlangan ushbu o'quv fanining maqsadi: eng yangi davrda, xususan, mustamlakachilik davrining tugaganidan keyin Sharq mamlakatlarining rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarni sharq mamlakatlari tarixiy tajribasi va sivilizasion o'ziga hosligini inobatga olgan holda o'rganishdan iborat.

Shu munosabat bilan quyidagilar fanning vazifalariga kiradi: Sharq mamlakatlarining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga umumiy tushuncha berish; xorijiy davlatlarining taraqqiyot yo'llarining bir-biridan farqi haqida tasavvur hosil qildirish; hozirgi davrda Sharq davlatlarining geosiyosiy, geostrategik mavqei o'sib borayotganini ko'rsatib berish; Sharq mamlakatlarining o'ziga xos taraqqiyot yo'llari va ularning ijobiy va salbiy natijalari, Sharq davlatlarining o'ziga xos rivojlanish modellari haqida bilim berish. Sharq olamidagi siyosiy mojarolar, inqirozlar, etnik muammolarning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri masalalarini ko'rsatib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tarixiy jarayonlar tadqiqining tizimli tahlili**

Tizimli tahlilning predmeti. Asosiy tizimli metodlar va jarayonlar. Tizimli tahlil asoslarining vujudga kelishi. "Sistema" (organizm, tuzilish, ittifoq, butunlik,

qismlardan tuzilgan) so'zi 2000-yil ilgari Qadimiy Gretsiyada paydo bo'lgan. Antik davrda Demokrit, Aristotel va yana ko'plab mutafakkirlar o'z ijodida tizimli tahlil asoslarini yaratgan.Yevropada gumanizim va ijtimoiy fikrlar rivojlangan bir davrda G. Galil, I. Lambert, I. Kant va I. Fixt singari olimlar tizimli tahlil metodlarini yanada rivojlantirdi.

XX asrda mazkur fanning yangi va yanada samarador metodlari ishlab chiqilgan va fan rivojida yangi bosqich bo'lgan, XX asrda bu fan rivojiga: R. Akoff, V. Afanasyev, S. Vira, I. Yu. Chernyak kabilar o'z hissasini qo'shgan

**2-mavzu. Sharq mamlakatlari rivojlanishi tarixining tizimli tahlili metodikasi va metodologiyasi**

Tarixiy jarayonlarning tizimli tahlili har qanday boshqa fan kabi, ob'ektlar va hodisalarning yangi aloqalari va munosabatlarini tadqiq qilish. Tizimli tahlil har xil tabiatga va tavsifga ega bo'lgan hodisalar va jarayonlarni, fanlararo muammolarni o'rganish va bayon etish uchun kerak bo'ladigan tushunchalar, jarayonlar va texnologiyalar to'plamidir. Bu to'plam shunday tizimlarni tadqiq qilishning usullari, metodlari, umumiy qonunlarini o'z ichiga oladi. Bu, nazariya va amaliyotning murakkab, ko'pincha to'la aniq bo'lmagan, muammolarini o'rganish metodologiyasidir.

Tizimli tahlil har xil fanlarda, sistemalarda foydalanish uchun qo'yidagi tizimli metodlarni va protseduralarni beradi: mavhum (abstrakt)lash aniq (konkret)lash; analiz va sintez, induksiya va deduksiya; formallashtirish aniq konkretlashtirish; kompozisiya va dekompozisiya;chiziqli ko'rinishga keltirish va chiziqli bo'lmagan tashkil etuvchilarni ajratish; tasnif strukturalash va tasnifni buzish (restrukturlash); maket yasash; algoritmlash; modelirlash va tajriba (eksperiment); dasturli boshqarish va yo'naltirish; tanish (raspoznavanie) va o'xshatish (identifikatsiya); qismlarga bo'lish (klasterizatsiya) va sinflash; ekspertli baholash va testlash; verifikatsiya va boshqa metodlar hamda protseduralar. O'rgatishdan maqsad, tasnif, tizim, ichki tizim, vazifa, muammo qo'yish ko'nilmalari. Tizimning asosiy belgilari va topologiyalar.

**3-mavzu. Sharq mamlakatlari rivojlanishining asosiy jihatlari tizimli tahlili**

Sharq va G'arb mamlakatlari taraqqiyotining dolzarb muammolari muhokamasi. Sharq va G'arb mamlakatlarini tarixiy rivojlanishida umumiylik va o'ziga xoslik. Sharq va G'arb xalqlarining milliy ongi va mentalitetini shakllanishiga geografik omilning ta'siri. Sharqda davlatchilikning shakllanishi xususiyatlari. Sharqda davlatchilikning rivojlanishi. Sharqdagi tarixiy va siyosiy jarayonlar dinamikasining xususiyatlari. Mustamlakachilik tizimining yemirilishi. Mustamlakachilikning tarixiy o'rni. Mustamlakachilik zavolining tarixiy bosqichlari. Ikkinchi Jahon urushidan keyin Osiyo va Afrika davlatlaridagi vaziyat. Ozodlikka erishgan mamlakatlarning rivojlanish yo'llari. Ozodlikka erishgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida zamonaviy va an'anaviy jihatlar. XX asrning ikkinchi yarmida Sharq mamlakatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari. Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining o'ziga xos jihatlari. Hozirgi Sharq mamlakatlari tarixidagi muammoli masalalar. Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi



va iqtisodiy vaziyat. Eron XX asrning 90-yillarida. Pahlaviylar sulolasi himoyasi ostida vujudga kelgan Milliy uyg'onish. Eron jamiyatida urf-odatlarning roli va ijtimoiy strukturasi. G'arb mamlakatlarining O'rta Sharq davlatlaridagi roli. Eron Islom Respublikasi davlat tuzilmalarining o'ziga xos jahatlari. Eronda islom davlatchiligi evolyusiyasi. Eronning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining dinamikasi. Eron Islom Respublikasi tashqi siyosati doktrinasining transformatsiyasi. Eronda "madaniy meros" va "o'ziga xos tarixiy taraqqiyot" g'oyalarining ilgari surilishi. G'arbga qarshi turli xil g'oyalarning vujudga kelishi.

**12-mavzu. Turkiyaning taraqqiyot yo'li**

Turkiya Tanzimot va Mustafo Kamol Otaturk islohotlari davrida. "Yosh turklar" tomonidan amalga oshirilgan radikal o'zgarishlar. M.K.Otaturk o'limidan so'ng kamolchilik merosidan chekinish, turk jamiyatining an'anaviy strukturalarining mustahkamlanishi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng Turkiyadagi ichki siyosiy kurash va "g'arblashtirish" siyosati. Turkiya ikkinchi va uchinchi respublika davrlarida: hokimiyat uchun kurash va diniy aqidaparstlikning kuchayishi. Sulaymon Demirelning siyosiy portreti. Turkiyadagi harbiy inqiloblar ketma-ketligi. Zamonaviy bosqichda Turkiyadagi ichki siyosiy kurash. R.T.Erdog'anning siyosiy portreti. XX asrning 80-yillarida yangi iqtisodiy strategiyaning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi. Mamlakatni siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning "Turkiya modeli"ning ishlab chiqilishi. Adolat va taraqqiyot partiyasining faoliyati. Turkiyaning tashqi siyosati: yangi ustivorliklar. Turkiya AQShning yangi harbiy-siyosiy ittifoqchisiga aylanishi. Turkiya va Markaziy Osiyo respublikalari.

**13-mavzu. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari taraqqiyoti xususiyatlari**

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari haqida umumiy sharh. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari: rivojlanishning asosiy xususiyatlari. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining yangi tarixida kuch omili. Din va uning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi roli. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN tashkiloti) mintaqadagi integrasion jarayonlar asosi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining eng yangi tarixida kuch omili mintaqa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylarning alohida o'rni bilan belgilanishi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tarixida eng og'ir damlarda hokimiyat harbiylar qo'liga o'tgani. Harbiy xuntaning davlat boshqaruvi. Siyosiy partiyalarning faoliyati. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida dinning o'rni. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida diniy ekstremizm va terrorizm muammosi. 1967 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN tashkiloti) tuzilishi. Mintaqada integrasion jarayonlarning izchillashuvi. Iqtisodiy integratsiya doirasidagi loyihalarning amalga oshirilishi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Sharqdagi siyosiy tizimlar va madaniyatlarning qiyosiy tahlili
2. Sharq mamlakatlarining taraqqiyot modellari
3. Sharq mamlakatlari siyosiy tizimi shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar

vazirning hokimiyat uchun o‘zaro raqobati. Pokiston tarixidagi birinchi umumxalq saylovlari. Pokistoning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi tarixi. Pokistonning rivojlanish modeli. Pokistonning yadro dasturi. Terrorizm va diniy ekstremizm muammolari. Pokiston davlati e’lon qilinishi. Pokiston hududidagi Afg‘oniston muxolif partiyalari. Pokiston tashqi siyosati. XXI asr boshida Pokiston tashqi siyosati. Pokiston ichki va tashqi siyosatida “islom omili”.

**10 -mavzu. O‘rta Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari**

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida siyosat, iqtisod va din. Turkiya, Eron va Afg‘oniston iqtisodida islom omili. XX asrning ikkinchi yarmida Sharqda keng rivoj topgan modernizatsiya jarayonlari. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy rivojlanishidagi ngi tendensiyalar. Islom dini tamoyillarini Sharq mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishiga moslashtirishga urinishlar. XX asrning 80-yilarida Turkiya, Eron va Afg‘onistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga G‘arb madaniyati va bozor iqtisodiyotining salbiy jihatlari kirib kelishi, liberalizatsiya va vesternizatsiya masalalari. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari siyosiy rivojlanishining xususiyatlari. Turkiya, Eron va Afg‘onistonning siyosiy hayoti nafaqat geografik, balki umumiy siviizasion asoslarga egaligi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida diniy ekstremizm va terrorizm masalalari.

Afg‘onistondagi inqilob va uning oqibatlari. Afg‘onistonda fuqarolar urushi kelib chiqishining negizlari. XX asrning 60-yillari Afg‘onistonda xalqning siyosiy faolligi oshishi. Afg‘onistonda partiyalar tashkil etilishi. Afg‘oniston xalq demokratik partiyasi, Musulmon yoshlari partiyasi ta’sis etilishi. Islomning siyosiylashuvi jarayonining jadallashuvi. Afg‘onistondagi davlat to‘ntarishi. Afg‘onistonda respublika davlat boshqaruvi tizimining joriy etilishi. Afg‘onistondan tashqarida hukumatga muxolif kuchlarning shaklantirilishi. “Afg‘oniston islom partiyasi”, “Afg‘oniston islom jamoasi” guruhlari tashkil etilishi. Daud tomonidan barcha hokimiyat o‘z qo‘lida mujassamlashtirilishi. 1978 yildagi aprel revolyusiyasi. N.Taraki, B.Karmal. Afg‘oniston Demokratik Respublikasi e’lon qilinishi. 1979 yildagi harbiy to‘ntarish. Hafizulla Aminning boshqaruvi yillari. H.Aminning ichki siyosati. B.Karmal revolyusiyasi va uning oqibatlari. Afg‘onistonda o‘zaro qarama-qarshliklar kelib chiqishi sabablari. Afg‘onistonga sobiq SSSR tomonidan cheklangan harbiy kontingentning olib kirilishi. B.Karmal islohotlari. 1987 yilda B.Karmalning hokimiyatdan chetlashtirilishi sabablari. Najibullaning ichki siyosiy kursi. Nadjibullo tomonidan Afg‘onistonda milliy kelishuv e’lon qilinishi. Sobiq sovet qo‘shinlarining olib chiqilishi.

**11-mavzu. Eronning inqilob yo‘li va mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi**

Eronda islom inqilobi. “Viloyati fakix” konsepsiyasi. Eron Ikkinchi Jahon urishidan so‘ng. Eron podshohi Rizo Pahlaviyning neft sanoatini milliylashtirishga yo‘naltirilgan siyosati. Rizo Pahlaviyning “Oq inqilobi”. 1978-1979 yillardagi Eron inqilobining xususiyatlari. Islom inqilobidan keyingi davrda Erondagi ijtimoiy-siyosiy



vaqti va iqtisodiy rivojlanish yo‘llarining tanlanishi. Osiyo va Afrika davlatlarining dunyo hamjamiyatidagi integrasion jarayonlardagi o‘rni va roli. XXI asrda Sharq mamlakatlari va xalqlarining dunyo miqyosidagi global voqea-hodisalarga ta’siri.

**4-mavzu. Hozirgi Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida din omili**

Sharq mamlakatlarining umumiy siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tasnifi. Sharq mamlakatlari ijtimoiy sohasida zamonaviylik va an’anaviylikning birgalikdagi harakati. Yangi tarix davrida Sharq mamlakatlari taraqqiyotining xususiyatlari. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllanishi, mustamlakachilik siyosati asoratlari. Sharq mamlakatlarida davlatni boshqarish shakllari. Mintaqaning zamonaviy strukturasi shakllanishi. Mintaqa mamlakatlarida modernizatsiya jarayonining o‘ziga xosligi.

Mustaqil davlatlarning vujudga kelishi jarayoni. Sharq mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xosligi. Sharq mamlakatlari jahon urushlari davrida. Siyosiy g‘oyalarning mamlakatlar taraqqiyotiga ta’siri.

Sharq mamlakatlari taraqqiyotida diniy omil. Islom hayot tarzi sifatida. Islomning diniy-madaniy an’analari va siyosat. Islom, konfusiylik, buddaviylik va induizmning Osiyo va Afrika qit’asidagi ayrim davlatlardagi o‘rni va roli. Sharq mamlakatlarining tarixiy rivojlanishining har bir bosqichlarida diniy ekstremizmning kelib chiqqani sabablari.

Sharq mamlakatlari XX asrda rivojlanishining asosiy tendensiyalari. Sharq mamlakatlarida hokimiyat va siyosat. An’anaviylik merosi, mintaqa davlatlarining iqtisodiy rivojidagi zamonaviy va an’anaviy tomonlar. Sharq davlatlari ijtimoiy strukturasi shakllanishi xususiyatlari. XXI asrda Sharq mamlakatlaridagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolar.

**5-mavzu. Arab mamlakatlari taraqqiyoti xususiyatlari**

Sivilizasion asoslar va arab birligi. Arablar va diniy ekstremizmi. Yaqin Sharqdagi arab-Isroil mojarosi. Diniy-madaniy meros arab jamiyati rivojlanishining asosi. G‘arb mustamlakachiligi arab xalqlarining iqtisodiy va siyosiy bo‘linishini kuchaytirib yuborgani. Arab davlatlarining siyosiy mustaqilligi. Arab mamlakatlarining uch zonaga bo‘linishi. Afrika, Sharqiy-O‘rtaer dengizi va Arabiston yarimoroli zonalarining tarixiy taqdiri. Arab mamlakatlaridagi mojarolar, inqiloblar, lokal urushlar. “Sovuq urush”ning arab davlatlaridagi ichki jarayonlarga va mamlakatning rivojlanishiga ta’siri. Tashqi siyosiy ta’sirlar ntijasida arab davlatlarining siyosiy va iqtisodiy bo‘linishi. Arab davlatlaridagi demokratik jarayonlar tarixi. “Arab bahori” va uning oqibatlari. Barqarorlikdan beqarorlikka o‘tish. 11-mavzu. Saudiya Arabistonining rivojlanishi bosqichlari va an’analari. Ol Saud sulolasining hokimiyat uchun kurashi. Saud ibn Muxammad – hozirgi Saudiya Arabistoni Podshohligining asoschisi. Saudiylarning yagona davlat tuzish yo‘lidagi faoliyati. Saudiya Arabistoni Podshohligining tashkil etilishi. Saudiylar va ularning g‘oyasi. Neft omili va Saudiya Arabistonining rivojlanish yo‘li. Neft eksportining yo‘lga qo‘yilishi. Ijtimoiy soha va iqtisodiyotning o‘sishi aholining turmush darajasiga ta’siri. Saudiylar oilasi. Podshoh Abdulaziz bin Saudning farzandlari. Podshoh Faysalning islohotlari. Podshoh Xolid

va uning davlatni boshqarish uslubi. Podshoh Faxd va uning ichki va tashqi siyosati. Mamlakatning iqtisodiy o'sishi. Iqtisodiyotda davlatning roli o'sishi. Podshohlikdagi muxolif kuchlr. Saudiya Arabistonini rivojlantirish bo'yicha beshyillik rejalar. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash masalalari. Podshohlikning iqtisodiy rivojlanishi va an'analar. Islom Saudiya Arabistoni Podshohligining asosi. Podshohlikdagi xorijiy harbiy bazalar. Diniy ekstremizm va terrorizm taxdidi va unga qarshi kurash.

**6-mavzu. Shimoliy Afrika arab davlatlari rivojlanish bosqichlarining tizimli tahlili**

Misr.1952-yildagi Misr inqilobi, uning xarakteri va oqibatlari. Prezident Jamol Abdunosir. Sues inqirozi. Nosirizm, Panarabizm g'oyalari. Marshal Amerning isyoni. Misrning XX asrning 70-yillaridagi "Yangi kursi". Prezident Anvar Sadat. Prezident X.Muborak va Misrning rivojlanish yo'li. "Ochiq eshiklar" siyosati. Diniy ekstremizm tahdidi va unga qarshi kurash. "Arab bahori" va hokimiyat tepasiga islomchilarning kelishi. Misr prezident M.Mursiy davrida. General Abdufattoh as-Sisiy. Misrning yangi siyosiy kursi. Misrda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari.

Jazoir taraqqiyotining xususiyatlari. Jazoir mustaqillik uchun kurash yo'lida. Mustaqillik g'oyasi sifatida islom dinining tanlanishi. Islom harakatlarining siyosiylashuvi. Milliy ozodlik fronti, Milliy ozodlik armiyasi tashkil etilishi. Jazoir-Fransiya urushi. 1962 yildagi referendum va Jazoirning mustaqillikka erishishi. Bumedian, Ben Bella, Benjadid g'oyalari va ularning tarafdorlari. Hokimiyatga qarshi harbiy isyonlar va qo'zg'alonlar. A.Buteflika. 1992 yildagi parlament saylovlari va Jazoirdagi vaziyat.

Liviyaning rivojlanishi va tanazzuli. Liviya mustaqillikka erishganidan keyin. Podshoh Idris. 1969 yil sentyabrdagi harbiy to'ntarish va podshohlikning tugatilishi. Liviya jamohiriyasi. Polkovnik Muammar Qazzofiy. Liviya ichki va tashqi siyosati. Liviya va terrorizm. Liviyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida neft omili. M.Qazzofiyning "Uchinchi dunyo nazariyasi". "Arab bahori" va Liviyadagi vaziyat. Liviyaga G'arb qadriyatlarining olib kirilishi. Diniy ekstremizm taxdidi va unga qarshi kurash. Liviyadagi beqarorlik. Liviya – afrikalik migrantlarning Yevropaga tarqalishiga qarshi forpost.

**7-mavzu. Suriya va Iroqning rivojlanish yo'li: muammolar va inqiroz**

Suriyadagi beqarorlik bosqichlari. 1946-1970 yillar oralig'ida Suriyada amalga oshirilgan yigirmaga isyonlar va harbiy to'ntarishlar. "Baas" arab sotsialistik partiyasining tashkil etilishi. Mishel Aflaq g'oyalari. Shishekli boshqaruvi. Suriyaning Misr bilan birlashishi va Birlashgan Arab Respublikasining tashkil etilishi. Arab sotsializmi g'oyalari. Suriya Arab Respublikasining tashkil etilishi. X.Asadning hokimiyat tepasiga kelishi. X.Asadning davlat boshqaruvi va mamlakatda tinchlik va barqarorlikning o'rnatilishi. Suriyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li. X.Asad o'g'illarining hokimiyat tepasiga chiqishi. B.Asadning prezidentligi. Diniy ekstremizm taxdidi va unga qarshi kurash. Suriyadagi islomchi muxolif kuchlar. Tashqi kuchlarning Suriyadagi ichki vaziyatga ta'siri.

Iroq taraqqiyotining o'zga xos jihatlari. Iroqdagi siyosiy kurashlar. Iroqdagi



milliy-ozodlik kurashlari. Podshoh Faysal. "Baas" partiyasining hokimiyat tepasiga chiqishi. Suriya va Iroqdagi "Baas" partiyalarining g'oyaviy birligi. Bag'dod pakti. Prezident Qosim. Iroqdagi harbiylar isyoni. Saddam Husayn va uning hokimiyat tepasiga chiqishi. Iroqning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi neft omili. S.Husaynning davlatni boshqarish uslublari. Iroqning konfessional va etnik tarkibi. Iroq-Eron urushi. Iroq Kurdistoni. Iroq-Kuvayt urushi. Iroqqa qarshi xalqaro koalisiya tuzilishi. 2003 yildagi Iroqka qarshi urush va S.Husayn hukumatining ag'darilishi. Iroqdagi fuqarolar urushi. Diniy ekstremizm va unga qarshi kurash. Iroqning terrorizm va narkotrafik markazlaridan birga aylanishi. "Iroq-Shom islom davlati" va uning fitnasi.

**8-mavzu. Hindistondagi tarkibiy islohotlar va an'analar**

Hozirgi Hindistonning asosiy sivilizasion xususiyatlari. Induizm va siyosat. Hindistonning sivilizasion tarkibi va uning mustamlakachilik tizimi davrida rivojlanganligi. Ingliz mustamlakachilari tomonidan davlat boshqaruviga olib kirilgan o'zgarishlar Hindistonning kelajakdagi rivojlanish yo'lini belgilab bergani. Britaniyaning Xindistondagi mustamlaka tuzumi va Xindistonning sotsial-iktisodiy rivojlanishi.

Hindistonning rivojlanish modeli mamlakatning an'anaviy tarkibini isloh qilmasdan g'arbiy Yevropaning kapitalistik davlatlari taraqqiyot yo'lidan borgani. Britaniya Hindistonning boshqaruv tizimi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangani. 1945-yildagi "Hindistonni boshqarish haqidagi" Qonun. Maxatma Gandi va Gandizm ta'limoti. Hindistonda milliy ozodlik harakatining yakuni. Javaharlal Neru va "sotsialistik tipidagi jamiyat" g'oyasi. Hindiston an'analari. Davlat rahbarini tanlashda uning dini va kastasining ahamiyati. Shtatlarning tashkil etilishi. Hindistonning ikki dominionga bo'linishi. Hindiston davlati e'lon qilinishi. Hindistonda tub islohotlarning amalga oshirilishi. J.Nerudan keyin Hindistondagi siyosiy kurash. Indira Gandi va Radjiv Gandi. Sekulyarizm va diniy an'analar. Atal Vadjpai va Manmoxan Sing islohotlari. Hindistondagi hukmron partiyalarning siyosiy va iqtisodiy orientirlari. Hozirgi Hindiston tashqi siyosati.

**9-mavzu. Pokiston rivojlanishining o'ziga xos jihatlari**

Pokiston davlatini tuzish uchun siyosiy faollikning boshlanishi, Pokiston davlatini tuzish haqidagi talablar. Pokistonning mustaqillikka erishishi jarayoni. Hindistonning ikki dominionga bo'linishi va Pokiston davlati e'lon qilinishining iqtisodiy oqibatlari. Pokiston davlatchiligi shaklanishi. Musulmonlarning yetakchisi Said Ahmadxonning ta'limotlari. Musulmon Ligasining tuzilishi. Musulmon Ligasini tuzilishi. Musulmon Ligasiga inglizlarning munosabati. Musulmonlar ligasi va uning siyosiy faoliyati. G'arbiy va Sharqiy Pokiston. Mudjibur Rahmon faoliyati. Bangladeshning ajralib chiqishi. Pokiston konstitutsiyalari. Ahmadiylarga qarshi harakatlar. Pokistondagi harbiy to'ntarishlar. Pokiston davlatchiligida diniy omilning roli. Mustaqillikka erishilganidan keyin Pokistondagi siyosiy partiyalarning faoliyati, Pokiston milliy partiyalari, Pokiston partiyalarining mamlakatni rivojlantirishdagi roli. XX asrning 50-yillarda Sharqiy Pokistondagi iqtisodiy va siyosiy holat. Pokistonda prezident va bosh